

## «HUMANS»NING «TOVAR VA XIZMATLAR VITRINASI» SERVISIDAN FOYDALANISH

### QOIDALARI

«Humans»ning «Tovar va xizmatlar vitrinasi» servisidan foydalanishning ushbu qoidalari

«Humans» MChJ, manzil: O'zbekiston Respublikasi, 100047, Toshkent sh., Yashnobod tumani,

Mahtumquli ko'ch., 2 b uy, ro'yxatdan o'tkazish davlat raqami: 749733, STIR: 306 624 856,

telefon: 1234 (keyingi o'rinnlarda «Humans» deb ataladi) tomonidan nomuayyan shaxslar

doirasiga qaratilgan ommaviy oferta hisoblanadi hamda Mijoz quyida bayon qilingan tartibda

rozilik bildirgan vaqtan boshlab Mijoz va Humans o'rtasidagi kelishuvga aylanadi.

### 1. ATAMALAR

1.1. Bank kartasi — emitenti bank hisoblangan, naqd pulsiz hisob-kitob vositasi bo'lган,

Mijoz o'z bank hisobida bo'lган pulmablag'lari, yoki bank hisobi shartnomasiga muvofiq bank

taqdim etgan kredit pullari bilan, yoki bank va Mijoz o'rtasidagi kreditshartnomasiga muvofiq

belgilangan doirada (bunday kartadan to'lov uchun foydalanish mumkin bo'lsa) Mijoz

opertasiyalaramalga oshirishi uchun mo'ljallangan plastik yoki virtual bank kartasi.

1.2. Mijoz — Mobil ilovani o'rnatgan, undan ro'yxatdan o'tgan hamda Mobil ilovada tegishli tugmani bosib, Qoidalarni qabulqilgan jismoniy shaxs.

1.3. Mobil ilova — Mijozning foydalanuvchi abonent qurilmasiga (planshetiga, smartfoniga) o'rnatiladigan, Mijozlarga Servisdan foydalanish imkonini beruvchi «Humans»ning mobil operatsion tizimlari uchun mo'ljallangan ilovasi hisoblanuvchidasturiy ta'minot. Mobil ilovada Mijoz uchun Hamkorlar ro'yxati, bank kartalarini bog'lash va operatsiyalar tarixini ko'rishfunksionali va boshqa imkoniyatlar mavjud.

1.4. To'lov tashkiloti ofertasi — To'lov tashkiloti saytida manzili bo'yicha joylashgan To'lov tashkilotining ommaviy ofertasi.

1.5. Hamkor — Mijozlarga Tovarlarni realizatsiya qiladigan yuridik shaxs/yakka tartibdagi tadbirkor.

1.6. To'lov tashkiloti — Mijozlар to'lovlariga elektron shaklda ishlov berish hamda To'lovni amalga oshirish uchun banklar va boshqa to'lov tashkilotlariga kerakli ma'lumotni o'tkazishni amalga oshiradigan «CLICK» MChJ yuridik shaxsi (manzil: Toshkent sh., Bratslava ko'ch.,

11-uy, STIR: 302134733, To'lov tashkilotining litsenziysi: 1сонли 28.03.2020 дан).

- 1.7. To'lov – Tovarlarga to'lov qilish maqsadida Mijozning Hamkor oldidagi pul majburiyatini bajarish yoki boshqa jismoniy shaxsga pul mablag'larini o'tkazishni amalga oshirish.
- 1.8. Qoidalar — «Humans»ning «Tovar va xizmatlar vitrinasi » servisidan foydalanish haqidagi ushbu qoidalar. Saytda va Mobil ilovada joylashgan «Humans»ning shaxsga doir ma'lumotlarni himoya qilish Siyosati ushbu Qoidalarning ajralmas qismi hisoblanadi. Mijoz ushbu Qoidalarni qabul qilar ekan, u Shaxsga doir ma'lumotlar siyosati bilan tanishib chiqib, ularni qabul qilishi kerak.
- 1.9. Sayt – [www.humans.uz](http://www.humans.uz) manzili bo'yicha joylashgan «Humans»ning Internet tarmog'idagi sayti.
- 1.10. Servis – Mobil ilova yordamida To'lov tashkilotining To'lov haqidagi ma'lumotini Hamkor yoki boshqa mijoz manziliga texnologik o'tkazuvini amalga oshirish, shuningdek operatsiyalar tarixini ko'rish, tanlangan To'lovlarni saqlash, bank kartalarini bog'lash va sozlashni amalga oshirish, «Humans»ning qo'llab-quvvatlash xizmatiga murojaat qilish va Mobil ilova funksionalida ko'zda tutilgan boshqa harakatlarni amalga oshirish imkonini beradigan «Humans»ning «Tovar va xizmatlar vitrinasi» servisi.
- 1.11. Tovar — Hamkor tomonidan realizatsiya qilinadigan hamda Mijoz tomonidan Hamkorga Servis yordamida to'langan tovar, ish, xizmat, intellektual faoliyat natijalariga bo'lgan huquqlar.
- 1.12. PAN — 16 belgilik Bank kartasi raqami.
- 1.13. Expiry date — Bank kartasining amal qilish muddati.

## 2. SERVISDAN FOYDALANISH SHARTLARI

- 2.1. Servisdan faqat shaxsiy, maishiy maqsadlarda foydalanadigan, undan savdo-sotiq faoliyati uchun va foyda ko'rish niyatida foydalanmaydigan har bir jismoniy shaxs Ushbu Qoidalarning shartlarini qabul qilishi va Servisning mijoziga aylanishi mumkin.
- 2.2. Servisdan foydalanish uchun Mijoz quyidagi harakatlarni amalga oshirishi lozim:
  - 2.2.1. Mijozga tegishli bo'lgan foydalanuvchi abonent qurilmasiga (smartfonga, planshetga) Mobil ilovani o'rnatish;
  - 2.2.2. Mobil ilovada ro'yxatdan o'tish, buning uchun mobil telefon raqamini, elektron pochta

manzilini yoki Facebook ijtimoiy tarmog'idaq akkauntni ko'rsatish;

2.2.3. Qoidalar shartlari bilan tanishib chiqish va ularni qabul qilish, jumladan tegishli tugmani bosib, Shaxsga doir ma'lumotlarni himoya qilish qoidalarini qabul qilish;

2.3. Ushbu Qoidalarning 2.2. bandida ko'rsatilgan harakatlarni amalga oshirish Qoidalarning to'liq va e'tirozsiz aksepti hisoblanadi va shuni tasdiqlaydiki, Mijoz:

2.3.1. Qoidalar mazmuni bilan tanishib chiqdi;

2.3.2. To'lov tashkiloti Ofertasi shartlari bilan, jumladan To'lovlar amalga oshirish uchun To'lov tashkiloti tomonidan undiriladigan komissiya miqdoribilan tanishib chiqdi va rozi bo'ldi;

2.3.3. «Humans» va/yoki Hamkordan SMS, elektron pochta, telefon aloqasi hamda tarqatma va bildirmalarning boshqa turlari orqali ma'lumot va reklama olishga rozilik bildirdi. Mijoz Mobil ilova yoki Abonent qurilmasining ishlab chiqaruvchisi tomonidan belgilangan interfeyslar orqali, yoki «Humans» Kontakt Markaziga murojaat qilib ma'lumot (shu jumladan reklama) olishdan bosh tortishi mumkin;

2.3.4. Mobil ilovaning to'g'ri ishlashi hamda Tovarlar joylashuvi va Hamkorlar haqida ma'lumot aks etishi uchun, shuningdek marketing maqsadlarida «Humans»ga o'zining geopozitsiyasini taqdim etishga rozi bo'ldi. Mijoz o'zining foydalanuvchi abonent qurilmasi sozlamalarida geopozitsiyasi haqida ma'lumot taqdim qilishdan voz kechishi mumkin.

2.4. Mijoz uchun Servisdan foydalanish bepul. To'lovlarni amalga oshirishda Mijoz To'lov tashkiloti tomonidan tashkilotning Ofertasiga muvofiq belgilangan va uning saytida joylashtirilgan komissiyani to'laydi «Humans» qo'shimcha hech qanday to'lov yoki komissiya undirmaydi. Shuningdek Mijoz undan olinayotgan komissiyalar haqida ma'lumotni Mobil ilovada olishi mumkin.

2.5. Mijozga Servis taqdim etish quyidagi hollarda to'xtatiladi:

2.5.1. Mijoz tegishli bildirishnomani «Humans»ga xat bilan yoki Mobil ilova chati orqali yo'llab, Servisdan voz kechsa;

2.5.2. To'lov tashkiloti Ofertasida, ushbu Qoidalarda yoki O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi normalarida ko'zda tutilgan hollarda To'lov tashkilotining talabiga ko'ra;

2.5.3. Qoidalarning 2.6 va 2.7 bandlarida ko'zda tutilgan hollarda;

2.5.4. Mijoz o'zining shaxsga oid ma'lumotlariga ishlov berishga bildirgan roziligin qaytarib olib, buning natijasida «Humans» Mijozga Servis taqdim qilish imkonini yo'qotsa.

2.6. «Humans» Qoidalarning 6-bo’limiga muvofiq Saytda ma’lumot e’lon qilish yo’li bilan Mijozga bu haqda xabar qilgan holda bir tomonlama tartibda ushbu Qoidalarning amal qilishini va Servis ko’rsatishni to’xtatishga haqli.

2.7. «Humans» har qanday Mijozni, agar u: Qoidalarga rioya qilmasa; Servis yoki Mobil ilovadagi ma’lumotni o’zgartirish uchun yoki Servis yoki Mobil ilovadan foydalanishning foydalanuvchi ssenariylarida ko’zda tutilmagan Mijozlar, To’lovlar, Servis Hamkorlari haqida ma’lumot olish uchun dasturiy vositalardan, apparat vositalaridan yoki boshqa usullardan foydalansa; «Humans» haqida noto’g’ri ma’lumotlarni tarqatsa; firibgarlikdan iborat bo’lgan, shuningdek To’lov tashkiloti yoki banklar tomonidan firibgarlik yoki frod operatsiyasi deb baholangan harakatlarni amalga oshirsa; To’lov tashkiloti yoki har qanday uchinchi shaxslarga nisbatan vijdonsiz harakatlar amalga oshirsa, jumladan, agar har qanday uchinchi shaxslardan Mijoz harakatlariga nisbatan shikoyat kelib tushsa; «Humans»ga, Hamkorga, boshqa Mijozlarga yoki To’lov tashkilotiga yanglishtiradigan axborotni yoki noto’g’ri xabarlarni taqdim etsa; ushbu Servis Mijozlari qatoridan chiqarib tashlashga haqli.

2.8. Servis O’zbekiston Respublikasi hududida taqdim etiladi.

2.9. Servis taqdim etayotib, «Humans» Tovarlarni Mijozlarga sotish (realizatsiya qilish) bo’yicha faoliyat ko’rsatmaydi, Tovarlarni xarid qilish, yetkazib berish va h.k. bilan bog’liq munosabatlar bevosita Hamkor hamda Mijoz o’rtasida vujudga keladi. Servis Mijozlarga Tovarlar haqida ma’lumot olishga, Hamkor, Mijoz va To’lov tashkiloti o’rtasida ma’lumot almashishga imkon beradi.

## **3. TO’LOVLARNI AMALGA OSHIRISH TARTIBI VA BANK KARTAKLARINI BOG’LASH QOIDALARI**

3.1. Mobil ilovada Mijoz Hamkorlar ro’yxati bilan tanishib chiqishi mumkin.

3.2. «Humans» Mijozga to’lov xizmatlarini ko’rsatmaydi. «Humans» To’lov tashkilotining texnologik hamkor hisoblanadi hamda Mijoz va To’lov tashkiloti o’rtasidagi axborot almashuvini ta’minlaydi.

3.3. To’lov Mijoz tashabbusi bilan Mijoz To’lov tashkilotining qo’shimcha foydalanuvchi interfeysi hisoblanuvchi Mobil ilova orqali To’lovni amalga oshirishga rozilik yuborishi orqali amalga oshiriladi. To’lov qilish uchun Mijoz Mobil ilovadagi qo’llanmalarga qat’iy rioya qilishi va barcha

kerakli ma'lumotlarni kiritishi lozim.

3.4. To'lov faqat O'zbekiston Respublikasining milliy valyutasida amalga oshiriladi.

3.5. To'lov qilish uchun ma'lumotlar kiritishni osonlashtirish maqsadida Mijoz Mobil ilovada o'zining «UZCARD» yoki «HUMO» to'lov tizimlariga tegishli bo'lgan Bank kartasining ma'lumotlarini kiritishi (Bank kartasini bog'lashni amalga oshirishi) mumkin. Buning uchun mijoz quyidagi harakatlar jamlanmasini amalga oshirishi kerak:

3.5.1. Mobil ilovada «Bank kartasini bog'lash» bo'limiga kirish;

3.5.2. Bank kartasida ko'rsatilgan shaxsiy ma'lumotlarni (familiya va ism) hamda karta ma'lumotlarini (PAN, expiry date, Bank kartasiga bog'langan telefon raqami - mamlakat kodi bilan) kiritish;

3.5.3 Maxsus parol orqali yoki To'lov tashkiloti yoki Bank kartasining emitent banki belgilagan autentifikatsiyaning boshqa usullari yordamida autentifikatsiyadan o'tish. Bank kartasining ma'lumotlari haqiqiyligi tekshiruvdan o'tganidan so'ng bank kartasining bog'lanishi amalga oshirilgan hisoblanadi.

Agar Mijozning bir nechta Bank kartasi bo'lsa, ularni bog'lash uchun U har bir bog'langan kartaga nisbatan yuqorida ko'rsatilgan harakatlar jamlanmasini qaytadan amalga oshirishi lozim. Bir nechta Bank kartasini bog'lashda Mijoz Mobil ilovada pul mablag'larini yechish sozlamalarini, shu jumladan mablag' yechishda ustuvorlikni o'rnatishi, To'lovlar uchun asosiy Bank kartasini belgilashi hamda Mobil ilova interfeyslarida ko'zda tutilgan boshqa sozlashlarni amalga oshirishi mumkin. Mijoz eng ko'pi bilan o'nta karta bog'lashi mumkin.

3.5. Amalga oshirilgan To'lovlar haqida ma'lumotni Mijoz operatsiyalar tarixiga qarab, shuningdek Mobil ilova orqali qo'llab-quvvatlash chatiga murojaat qilgan holda olishi mumkin.

3.6. Ayrim Mijozlar toifasi uchun To'lov tashkiloti qonunchilik talablari, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, boshqa davlat organlari, shuningdek, to'lov tizimlari talablariga muvofiq, alohida To'lovlarini o'tkazish imkoniyatini cheklashi mumkin.

## 4. TOMONLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

4.1. Mijozning huquq va majburiyatları:

4.1.1. Mijoz Tovarlarni sotib olish va ularni qaytarish (agar bu Tovarlarning ma'lum turlariga nisbatan qo'llaniladigan bo'lsa) shartlari bilan ularni Hamkorlardan xarid qilishgacha diqqat bilan

tanishib chiqish majburiyatini oladi.

4.1.2. Mijoz Bank kartasining ma'lumotlarini hamda foydalanuvchi abonent qurilmasini uchinchi shaxslarga bermasligi, o'zigategishli bo'lgan foydalanuvchi abonent qurilmasi, shuningdek Mobil ilovaning uchinchi shaxslar tomonidan ijozatsizfoydalanilishidan himoya qilishi, jumladan ulardan foydalanish uchun parol, texnik autentifikatsiya vositalarini (touch ID, facelD hamda foydalanuvchi abonent qurilmasi ishlab chiqaruvchisi bilan mos keluvchi boshqa himoya vositalari) o'rnatishi, parollarniyopiq va uchinchi shaxslar foydalana olmaydigan joyda saqlashi, ularni tez-tez almashtirib turishi, foydalanuvchi abonentqurilmalarini zararli dasturiy ta'minotlardan himoya qilishni ta'minlashi, faqat litsenziyalı dasturiy ta'minotlardan foydalanishihamda To'lovlarini ijozatsiz amalga oshirish va Mobil ilovadan foydalanishga to'sqinlik qiladigan boshqa himoya vositalariniqo'llashi shart.

4.1.3. Mijoz ushbu Qoidalardagi, shuningdek To'lov tashkilotining Ofertasidagi o'zgarishlarni mustaqil ravishda kuzatib borishihamda har hafta ularning dolzarbligini tekshirib borishi shart.

4.1.4. To'lov amalga oshirilmagan hollarda (agar bu holat Mijoz tomonidan ushbu Qoidalarni, To'lov tashkiloti Ofertasini buzishbilan bog'liq bo'lmasa) yoki Mobil ilovaning To'lov qilish uchun mo'ljallangan interfeyslarida ko'zda tutilgan harakatlar amalgaoshirilmagan holatlarda Mijoz 5.4. bandida belgilangan tartibda «Humans» ga murojaat qilishga va agar muammo hal qilinmasa, To'lov tashkilotidan uning Ofertasida ko'zda tutilgan tartib va miqdorda kompensatsiya talab qilishga haqli;

4.1.5. «Humans»dan rasmiy talab olgan sanadan boshlab 5 (besh) kalendar kunidan kechiktirmay Mijoz tomonidan To'lov amalgaoshirilganligini, Mijoz ushbu Qoidalarni bajarganligini tasdiqlovchi, shuningdek Mijozning Servisdan foydalanishdaharakatlarini tushuntiruvchi hujjat va ma'lumotlarni taqdim etish;

4.1.6. Mijoz «Humans» tomonidan ushbu Qoidalarga biriktirilgan ilovalada belgilangan shartlar asosida hamda belgilanganbarcha majburiyatlarga rioya qilgan holda «Humans»ning Xayriohlik dasturida ishtirok etishga haqli.

## 4.2. «Humans»ning huquq va majburiyatları

4.2.1. Agar Mijozning Mobil ilovani o'rnatish va undan belgilangan maqsadda foydalanishga imkon beruvchi texnik ta'riflargaega bo'lgan foydalanuvchi abonent qurilmasi, shuningdek texnik imkoniyatlari mavjud bo'lsa, shuningdek Mijoz Servistalablariga rioya qilsa, «Humans» Mijozni

Servisga ulashni amalga oshirish majburiyatini oladi.

4.2.2. «Humans» Mijozlarga Servisdan foydalanish masalalari bo'yicha maslahatlar berishi, shuningdek Mobil ilova chatidanfoydalangan holda Mijozlarning da'vo va shikoyatlarini qabul qilishi shart.

4.2.3. «Humans» Servislar orqali Mijozlar, Hamkorlar yoki To'lov tashkilotidan olgan ma'lumotning maxfiyligini ta'minlashi, shujumladan uchinchi shaxslar ulardan g'ayriqonuniy foydalanishidan himoya qilishi shart. «Humans» olingan axborotni har qandayuchinchi shaxslarga oshkor qilishga haqli emas (ushbu axborotdan foydalanish o'z majburiyatlarini bajarishi uchun zarur bo'lganxodimlar, maslahatchilar hamda pudratchilar, shuningdek ushbu Qoidalarda nazarda tutilgan hollar bundan mustasno).

4.2.4. «Humans» Mijozdan ushbu Qoidalarning 4.1.5. bandida ko'rsatilgan hujjatlar va axborotni so'rab olishga haqli. Uchinchishaxslardan Mijoz harakatlariga nisbatan shikoyatlar, To'lov tashkiloti yoki To'lovn ni amalga oshirishda ishtirok etayotgan banklardan rasmiy talablar kelib tushganida, shuningdek Mijoz tomonidan Qoidalarning 2.7. bandida ko'rsatilgan harakatlarnisodir etilish belgilari aniqlanganida «Humans» Mijozi Servisdan foydalanishini Mijoz harakatlarining qonuniyligi vavijdonliligi tasdiqlanguniga qadar to'xtatib qo'yishga haqli.

4.2.5. «Humans» Mijozdan olingan axborotni unga Servis ko'rsatish maqsadida, «Humans» va/yoki Hamkorlarning marketing va reklama maqsadlarida, Servis Mijozi larning o'zini tutishi haqidagi ma'lumotlarni umumlashtirish va tahlil qilish uchun, shuningdek Shaxsga oid ma'lumotlarni himoya qilish siyosatida belgilangan boshqa maqladlarda foydalanishga haqli.

## 5. TOMONLAR JAVOBGARLIGI VA BAHSLI HOLATLARNI HAL ETISH TARTIBI

5.1. Ushbu Qoidalarda tartibga solinmagan barcha masalalar bo'yicha Tomonlar O'zbekiston Respublikasining qonunchiligiga tayanadi.

5.2. «Humans» Servis doirasidagi majburiyatlarning bajarilmagani yoki kerakli darajada bajarilmagani, shuningdek quyidagi hollarda keltirilgan zarar uchun javobgar emas:

5.2.1. «Humans», Hamkorlar yoki uchinchi shaxslarning axborot xavfsizligini, ular Servisni tashkil etish uchun foydalanadigan uskunalarining normal ishlashini buzishga qaratilgan g'ayriqonuniy harakatlari natijasida yuzaga kelgan holatlar;

5.2.2. Koddagi xatoliklar, kompyuter viruslari hamda Servisni tashkil etishda foydalaniladigan

«Humans» uskunasining dasturiy ta'minotidagi kodning boshqa begona qismlaridagi xatolar oqibatida Mobil ilova faoliyatida ishdan chiqish holatlari natijasida yuzaga kelgan holatlari;

5.2.3. To'lov tashkiloti yoki Hamkorlarning uskunasi va/yoki dasturiy ta'minoti faoliyatidagi ishdan chiqish holatlari, shuningdek natijada «Humans» o'z majburiyatlarini bajarish uchun kerakli bo'lган axborotni olmagan To'lov tashkiloti yoki Hamkorlarning boshqa harakatlari va/yoki harakatsizligi natijasida yuzaga kelgan holatlari;

5.2.4. Uchinchi shaxslar, shu jumladan To'lov tashkilotining xatti-harakatlari natijasida yuzaga kelgan holatlari.

5.3. «Humans» yoki To'lov tashkiloti Hamkorlar tomonidan Tovarlarning sifati va ularning realizatsiya qilish shartlari uchun Mijoz oldida javobgar emas. Tovar va uni xarid qilish shartlari bilan bog'liq barcha da'volarni Mijozlar tegishli Hamkorlarga yo'llashi kerak.

5.4. Servisdan foydalanishda yuzaga kelgan barcha da'volarni Mijozlar Mobil ilovadagi chat yordamida yo'llashlari kerak. Shuningdek Mijozlar «Humans» manziliga yozma shaklda da'vo xati yo'llashlari mumkin. Da'vo xatini «Humans» olingan vaqtdan boshlab 30 (o'ttiz) kun ichida ko'rib chiqadi.

Agar da'vodagi masala «Humans» ko'rsatadigan xizmatlar doirasidan chetga chiqadigan bo'lsa va uni ko'rib chiqish uchun To'lov tashkilotidan ma'lumotlar olish talab etilsa, «Humans» bunday da'veoni bu haqda Mijozni ogohlantirgan holda To'lov tashkilotiga yuborishga haqli. To'lov tashkilotida Mijozning da'vosini ko'rib chiqish To'lov tashkiloti ofertasida ko'zda tutilgan tartibda amalga oshiriladi.

5.5. Barcha bahsli holatlар muzokara qilish yo'li bilan hal etiladi. Agar hal etishning imkonи bo'lmasa, bahsli holat ko'rib chiqish uchun O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablariga muvofiq sudga yuboriladi.

## 6. SERVISNING AMAL QILISHI

6.1. Mijoz uchun Servisning amal qilishi Qoidalarning 2.6. bandiga ko'ra Servis taqdim etilishi tugatilgan mahaldan yoki «Humans» tomonidan Servis ko'rsatish tugatilgan vaqtdan boshlab to'xtatiladi. Servis ko'rsatish to'xtatilgani haqida «Humans» Saytda ma'lum qiladi. Saytdagi tegishli xabarda ko'rsatilgan sanadan boshlab Servis to'xtatilgan hisoblanadi.

6.2. Ushbu Qoidalalar Saytda e'lon qilingan vaqtdan boshlab kuchga kiradi.

6.3. «Humans» ushbu Qoidalarni bir tomonlama tartibda o'zgartirishga haqli. Qoidalar Saytda «Humans» tomonidan tegishli xabarda ko'rsatilgan vaqtdan boshlab o'zgargan hisoblanadi. Agar Mijoz o'zgarishlar kuchga kirganidan keyin Servisdan foydalanishda davom etsa, bunday o'zgarishlar Mijoz tomonidan qabul qilingan sanaladi.